

**“ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI” DARSLARIDA MEHNATSEVARLIK
MAVZUSIDAGI MAQOLLARNI O'RGATISH USULLARINI
TAKOMILLASHTIRISH.**

Eshtemirova Munisa Isoq qizi

Surxondaryo viloyati Jarqo'rg'on tumani

23-umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maqollar orqali o'quvchilar ongiga vatanparvarlik, mehnatsevarlik, ilim olishga qiziqish, kamitarlik oqko'ngillik tuyg'ularini va mehnatga bo'lgan to'g'ri munosabatni shakllantirish orqali ularga halol mehnat bilan topilgan har qanday boylik hech qachon yo'q bo'lmasligi haqidagi tushunchalarini singdirish.*

Kalit so'zlar: ifodali o'qish ,yod olish , maqol, hikmatli so'zlar, iboralar, halollik, to'g'rilik, mehnatsevarlik.

Аннотация: В данной статье через пословицы патриотизм, трудолюбие, интерес к обучению, скромность, доброжелательность и т. д. формируя правильное отношение к труду, прививая им понимание того, что любое богатство, заработанное честным трудом, никогда не исчезнет.

Ключевые слова: выражительное чтение, заучивание, пословицы, мудрые слова, словосочетания, честность, правильность, трудолюбие.

Abstract: In this article, through proverbs, patriotism, hard work, interest in learning, humility, benevolence, etc by forming the right attitude to work, instilling in them the understanding that any wealth earned by honest work will never disappear.

Key words: expressive reading, memorizing, proverbs, wise words, phrases, honesty, correctness, diligence.

Ilm – ma'rifat va kasb – hunarga intilish, oilani muqaddas bilish, ma'naviy poklik, kattalarga hurmat, kichiklarga shafqat qadryatlarimizga sadoqat kabi ezgu fazilatlar azaldan xalqimiz, millatimizning qonida bo'lib kelgan. Biz mana shunday bebahoh merosimizni nafaqat asrashimiz, balki uni yanada boyitishimiz, kelgusi avlodlarga bezavol yetkazishimiz kerak. Ta'lim muassasalariga qo'yilayotgan asosiy talab – bu ta'lim tarbiya jarayonlarida sifatlari va samarali natijaga erishishdir. Demak, o'qitishga mutasaddi bo'lgan har bir pedagokning o'zi, avvalo, kasbiy salohiyatga ega bo'lishi zarur. Shundagina, o'qituvchilarning pedagogik mahorati va o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi takomillashib boradi. Ta'lim bu tarbiyaning ajralmas qismidir. Ta'limdan ajralmagan xolda tarbiyalash bu eng avvalo maktab obro' – e'tiborini vujudga keltiradi. Shunday ekan, o'qish, grammatika va matematika darslarida muntazam ta'lim bilan birga tarbiya ham olib boriladi. Tarbiya daqiqalari darsda odatdagi ishlarga: o'qituvchining savollari, o'quvchining javoblari, o'qituvchining harakatlari, o'quvchining harakatlariga chirmashib boradi. Bunday vaziyatlarda 45 minutlik dars jarayonlarida samarali ta'lim – tarbiyaga erishish uchun

“Xalq og'zaki ijodi”dagi maqollardan foydalanish ham ma'lum ma'noda o'quvchining o'qishga munosabatini boshqaradi, tengqurlari va jamoa oldida o'zini qanday

tutishini belgilab beradi. Maqol arabcha “qavolla” ,”qavlun” so’zlaridan olingan bo’lib , so’z ,aytmoq, so’zlamoq ma’nolarini anglatadi.

Maqol bu - insonlarning turmush tajribalari zaminida vujudga kelgan va xalq donoligini ifodalagan qisqa she’riy shakldagi hikmatli so’zlar, chuqur ma’noli iboralardir. Maqollar ixcham shaklga ega bo’lsa-da, kata hayotiy muammolarni o’z ichiga oladi. O’zbek xalq maqollarini yozib olish XI asr, Mahmud Qashg’ariydan boshlangan. Maqollar xilma-xil mavzularda bo’lib, hayotning turli xil masalalarini qamrab oladi. Maqololar ko’pincha nasihat va o’git harakterida bo’ladi. Masalan: “Mehnatdan kelsa boylik, Turmush bo’lar chiroylig”. “Mehnat - mehnatning tagi rohat” kabi maqollar xalq og’zaki ijodining juda qadimi shakllaridan biridir. Boshlang’ich sinf “Ona tili va o’qish savodxonligi” o’quvchilarga mehnatsevarlik mavzusidagi maqollarni o’rgatish orqali, o’quvchilar ongiga vataparvarlik, mehnatsevarlik, insonparvarlik, ilm olishga qiziqish, kamtarlik, oqko’ngillik, mehr-oqibat, o’zaro hurmat va bir-biriga yordam berish tuyg’ularini shakllantiriladi. Shu sabab maqollar bolalarni to’g’ri va mantiqiy fikrlashga, maqsadni qisqa va lo’nda bayon etishga o’rgatadi, ularning badiiy didini oshiradi, tarixiy voqeя va hodisalarining mohiyatini yaxshiroq , chuqurroq bilib olishga yordam beradi.

Ona tili va o’qish savodxonligi darslarining eng nozik badiiy xususiyatlarini bilishga va so’z boyligini ham oshirishga yordam beruvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Maqollarda mehnat - insonning ko’rki, ziynati sifatida ifoda etiladi. Hamkorlikda, kengashib qilingan mehnat serunum bo’ladi, degan g’oyalari ilgari suriladi: Daraxt yaprog’I bilan ko’rkam, Odam - mehnati bilan. Mehnat qilib topganing , Qandu asal totganing. Savod o’rgatish davrida maqollarni o’qish va o’rganishning tayyorlov bosqichidir. 1-2-sinflar ona tili va o’qish savodxonligi darslarida maqollarni o’rganishning birinchi bosqichi bo’lsa, 3-4-sinflarda maqollar maxsus darslarda va badiiy asarni o’ganish jarayonida ham muntazam o’rganib boriladi. Maqollarni o’rgatishda o’qituvchidan kata tayyorgarlik talab etiladi. Har bir darsga tayyorlanayotganda asr mazmuniga va unda ilgari surilgan g’oyaga mos maqol ustida qanday mashq uyuştirishni rejalashtirib olish lozim. 1-2-sinflarda maqolni ifodali o’qish, mazmunini o’rganish va yod olishga ahamiyat beriladi. Bundan tashqari matndagi izohtalab so’zlar, birikmalar ustida lug’at ishi o’tkazish, badiiy til vositalari ko’chma ma’noli, qarama-qarshi ma’no bildiruvchi, maqolda takrorlanib kelayotgan so’zlar ma’nosи yuzasidan ish olib borish talab etiladi. Masalan: 2-sinf ona tili va o’qish savodxonligi kitobida “Chumolining jasorati “ matnidan keyin: “Harakatda - barakat “ , “ Kuch - birlikda “ kabi maqollar keltirilgan. Bu maqollardan matn o’rganib bo’lingach, matnning g’oyasini ochishda va xulosa chiqarishda foydalaniladi. 3-4-sinflarda “Xalq og’zaki ijodi” bo’limi tarkibida “Maqollar” mavzusida alohida o’rganiladi. Bu mavzuni o’rganishda maqolning kelib chiqishi va yoritilishi haqida dastlabki elementlar, ma’lumotlar beriladi.

Xulosa qilib aytganda, xalq og’zaki ijodining bir turi bo’lgan “Maqollar” bolalarni ziyraklikka, kuzatuvchanlik hislarini, fikr doirasini kengaytirishda, aqk - idroklarini rivojlantirishda, nafosat tuyg’ularini va kuzatuvchanlik qobiliyatlarini o’stiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shavkat Mirziyoyevning “Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari” kitobidan “Toshkent - 2020”
2. O’qituvchilarga mo’ljallangan “Pedagogik izlanish” - 1979 - 1986 . “Pedagogika” nashriyotidan.
3. 4 - sinf O’qish darslari “O’qituvchi kitobi” Toshkent - 2007.
4. 2 - sinf uchun “Ona tili va o’qish savodxonligi” darslik 1 - qism Toshkent - 2021.